

MILLIY GVARDIYA BO'LINMALARI TOMONIDAN

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI VA JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Adashov Hojiboy Xusan o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti magistranti

Annotatsiya: maqolada Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish yo'llari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: huquqbuzarlik, fuqaro, qonun, hujjat, jinoyatchilik, profilaktika.

Bugungi kunda ijtimoiy hayot shiddat bilan rivojlanib bormoqda, bu esa barchamizga, shu jumladan milliy gvardiya qo'riqlash organlari zimmasiga yangidan-yangi vazifalarni qo'ymoqda.

Ayniqsa, so'nggi uch yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan tizimni isloh etish, kadrlar bilan ishlash, ularning malakasi va mas'uliyatini oshirish, jinoyatlarni barvaqt aniqlash va oldini olish, huquqbuzarlik profilaktikasi samaradorligini oshirish, sohaning quyi bo'g'inlarini mustahkamlashga qaratilgan 50 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Eng muhimi, xalq manfaatlariga xizmat qilish milliy gvardiya qo'riqlash xodimlari faoliyatining asosiy mezoni etib belgilandi.

Mamlakatimizda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishni ta'minlash, jamiyatda fuqarolarning huquqiy madaniyatini va huquqiy savodxonligini yuksaltirish, fuqarolarning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, qonunlarga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik munosabatini singdirish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu asnoda, yurtimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi amalga oshirishga qaratilgan bir qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 14-may kungi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-son qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-mart kungi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2833-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-fevral kungi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va



jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi PQ-4166-son qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 14-may kungi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" gi O'RQ-371-son qonunning 3-moddasiga asosan, sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g'ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) huquqbuzarlik deb nomlanadi Mazkur qonunning 5-moddasiga asosan, huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilandi:

- shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash;
- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash, shuningdek korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;
- huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish, bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;
- huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarni, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish;
- jismoniy shaxslarning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirish;
- huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar faoliyatining o'zaro hamkorligini ta'minlash va ularning faoliyatini muvofiqlashtirishdan iboratdir. Mazkur qonunda huquqbuzarliklar profilaktikasining 4 ta asosiy turi belgilandi.

Jumladan, huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi, huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi hamda huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi. Ushbu qonun bilan huquqbuzarliklar profilaktikasining har bir turi bo'yicha tegishli chora-tadbirlar hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari belgilandi. Ushbu qonun bilan huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tizimi belgilandi. Unga ko'ra,



- ✓ ichki ishlar organlari;
 - ✓ prokuratura organlari;
 - ✓ Davlat xavfsizlik xizmati organlari;
 - ✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati organlari;
 - ✓ O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari;
 - ✓ O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;
- adliya organlari;
- ✓ davlat bojxona xizmati organlari;
 - ✓ davlat soliq xizmati organlari;
 - ✓ mehnat organlari;
 - ✓ ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari;
 - ✓ davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish nafaqat davlat organlarining, balki shu jamiyatning a'zosi hisoblangan har bir insonning vazifasidir.

Adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza // Xalqso'zi. – 2018. – 8 dek.

2.Джалилов, Н. (2021). Профилактика инспектори маъмурий иш юритиш фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари. Общество и инновации, 2(12/S), 348-352.

3.Икрамова, Л., & Арипова, А. (2021). РОЛЬ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ ИНСПЕКТОРОВ ПРОФИЛАКТИКИ В ПРЕДУПРЕЖДЕНИИ ПРЕСТУПНОСТИ. Scientific progress, 1(6), 476-479.